



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR ORASIDA KO‘Z KASALLIKLARI
TARQALISHINING TIBBIY-IJTIMOIIY JIHLTLARI TO‘G‘RISIDAGI AYRIM
MA‘LUMOTLAR (ADABIYOTLAR SHARHI)



Tibbiyot fanlari doktori
Abdullayev Ibadulla Kochkarovich

Salayev Jaxongir Rustambekovich
Urganch davlat tibbiyot instituti (Magistr)
gmail:salayevjahongir@gmail.com
Orcid:0009-0004-9692-6816
UDK:617.7-053.5:616-036.22:614
Tel raqam:+998886019009

Ilmiy rahbar: Abdullayev Ibadulla Kochkarovich
Urganch davlat tibbiyot instituti(Urganch, O‘zbekiston)
Orcid:0009-0008-1296-5228
Tel raqam: +998995642061

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarda ko‘z kasalliklarining tarqalishi va o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.Tadqiqot natijalarida maktab yoshidagi bolalarda ko‘z kasalliklarning etiologik omillari, klinik ko‘rinishlari va tarqalish darajasi tahlil qilingan. Ko‘z kasalliklarning o‘z vaqtida aniqlanmasligi bolalarning o‘quv faoliyati va ijtimoiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Maqolada maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan eng ko‘p tarqalgan ko‘z kasalliklari, ularga sabab bo‘luvchi xavf omillari va profilaktika chora-tadbirlari batafsil bayon etilgan. Tadqiqot natijalari makab yoshidagi bolalarda ko‘z kasalliklarini erta aniqlash va davolashning ahamiyati hamda bu borada tizimli tibbiy ko‘riklarni tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: maktab yoshidagi bolalar, ko‘z kasalliklari, uyali aloqa vositalari, miopiya, masofaviy o‘qish davri, profilaktika, xavf omillari, tarqalish, jismoniy faollik, ko‘rish o‘tkirligining pasayishi.

SOME DATA ON THE MEDICAL AND SOCIAL ASPECTS OF THE PREVALENCE OF
EYE DISEASES AMONG SCHOOL-AGED CHILDREN

Salayev Jaxongir Rustambekovich
Urgench State Medical Institute (Master’s student)
Email:salayevjahongir@gmail.com
Orcid:0009-0004-9692-6816
UDK: 617.7-053.5:616-036.22:614
Phone number:+998886019009
Scientific Supervisor: Abdullaev Ibadulla Kuchkarovich
Urgench State Medical Institute (Urgench, Uzbekistan)
Orcid:0009-0008-1296-5228
Phone number:+998995642061



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Abstract. This article investigates the prevalence and specific characteristics of eye diseases among school-aged children. The study analyzes the etiological factors, clinical manifestations, and prevalence rate of ocular diseases in this population. It also examines the negative impact of delayed diagnosis on children's academic performance and social life. The article provides a detailed overview of the most common eye diseases in school-aged children, associated risk factors, and preventive measures. The findings highlight the importance of early detection and treatment of eye diseases, as well as the necessity of organizing systematic medical screenings for school-aged children.

Keywords: school-aged children, eye diseases, mobile devices, myopia, distance learning period, prevention, risk factors, prevalence, physical activity, decreased visual acuity.

**НЕКОТОРЫЕ ДАННЫЕ О МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫХ АСПЕКТАХ
РАСПРОСТРАНЁННОСТИ ГЛАЗНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ СРЕДИ ДЕТЕЙ
ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Салаев Жахонгир Рустамбекович
Ургенчский государственный медицинский институт (Магистр)

Емaйл: salayevjahongir@gmail.com

Orcid: :0009-0004-9692-6816

УДК: 617.7-053.5:616-036.22:614

Номер телефона: +998886019009

Научный руководитель: Абдуллаев Ибадулла Кочкарович

Orcid: 0009-0008-1296-5228

Номер телефона: +998995642061

Ургенчский государственный медицинский институт (Ургенч, Узбекистан)

Аннотация. В данной статье исследованы распространённость и особенности глазных заболеваний у детей школьного возраста. В результате исследования были проанализированы этиологические факторы, клинические проявления и уровень распространённости глазных заболеваний у школьников. Изучено негативное влияние несвоевременной диагностики глазных заболеваний на учебную деятельность и социальную жизнь детей. В статье подробно рассмотрены наиболее распространённые глазные заболевания у детей школьного возраста, факторы риска, способствующие их развитию, а также меры профилактики. Результаты исследования показали важность раннего выявления и лечения глазных заболеваний у детей школьного возраста, а также необходимость организации систематических медицинских осмотров в данном направлении.

Ключевые слова: дети школьного возраста, глазные заболевания, мобильные устройства, миопия, период дистанционного обучения, профилактика, факторы риска, распространённость, физическая активность, снижение остроты зрения.

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillarda dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida, jumladan O‘zbekistonda ham aholi orasida, xususan maktab yoshidagi bolalarda ko‘rish a‘zolari kasalliklari va uning asoratlari sifatida yaxshi ko‘ra olmaslik yoki ko‘rlik holatlarining darajasi



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

nisbatan yuqoriligicha saqlanib qolish bilan bir vaqtda ko‘payish an‘anasiga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Aksariyat adabiyotlarda tadqiqotchilar bu holatni so‘nggi yillarda raqamli moslamalarning keng tarqalishi va maktab yoshidagi bolalarning uyali aloqa vositalaridan, planshetlardan, noutbuklardan, kompyuterlardan uzoq vaqt foydalanishlari, televizor ekranlari oldida uzoq vaqt qolib ketishlari, ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan bolalarning mazkur faoliyatlari yetarlicha nazorat qilmasliklari bilan bog‘laydilar. A.M.Kurganskiy, M.P.Guryanova va boshqalarning (2023) ilmiy tadqiqot natijalariga qaraganda, 50% ota-onalar mazkur yo‘nalishda bolalarining salomatligi borasida mutaxassislarining yordamiga muhtojligi keltiriladi. Mualliflarning ta‘kidlashlaricha, 37% 3-7 yoshdagi bolalar uyali aloqa vositalaridan foydalanadilar. E‘tiborli jihati shundaki, 3 yoshdan 7 yoshgacha davrda bolalarning uyali telefonlardan foydalanish darajasi 4% dan 35% gacha oshganligini ko‘rish mumkin. Eng e‘tiborlisi, 27,8% kichik maktab yoshidagi bolalar kuniga 2 soatdan 4 soatgacha kompyuterdan foydalanadilar, 67% bolalarda telefonda gaplashish davomiyligi 2-3 daqiqani, 23% bolalarda 5-10 daqiqani, 5% bolalarda 10-20 daqiqani va 3% bolalarda esa 25-40 daqiqani tashkil qilgan. Raqamli moslamalardan foydalanishlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, 61,2% ota-onalari bilan muloqot uchun, 58,9% o‘yin o‘ynash, 51,1% video ko‘rish, 49,8% do‘stlari bilan muloqot, 36,6% ma‘lumot izlash, 21,7% uy vazifasini bajarish uchun, 19,4% musiqa tinglash, 15,9% o‘qish maqsadida foydalanganlar. E.V.Berdnikova, E.V.Yadykina va boshqalarning (2025) ilmiy xulosalari shuni ko‘rsatdiki, anketa so‘rovi o‘tkazilgan maktab yoshidagi bolalarda kompyuter ko‘rish sindromi miopiya kasalligining rivojlanishida asosiy omil sifatida namoyon bo‘lgan. Bolalarning yoshlari o‘sgan sari kasallik darajasi ham oshib borganligi kuzatilgan. Bunga qo‘shimcha ravishda, bolalarning boshqa turdagi elektron gadjetlardan ko‘p foydalanishlari va aksincha ularning toza havoda yurish vaqtlarining bir kunda bir soatdan oshmaganligi natijasida bolalarda miopik refraksiya yosh o‘sishi bilan oshib borishi miopiya kasalligining ko‘payishiga sabab bo‘lganligi qayd etiladi.

Ayrim istiqboldagi statistik ma‘lumotlarga qaraganda 2050 yillarga borib odamlar orasida uzoqni ko‘ra olmaslik, ya‘ni miopiya kasalligi butun dunyo aholisining 50% ini egallashi, jumladan yuqori darajadagi miopiya 2,7% dan 9,8% gacha yetishi qayd etiladi. COVID-19 pandemiyasi davrida bolalar va o‘smirlarning maktablarda o‘qish jarayonlarining masofaviy turga o‘tkazilishi munosabati bilan ularning uzoq vaqtni raqamli ekranlar oldida bo‘lishlari miopiyaning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Ukrainada amalga oshirilgan o‘rganishlar xulosasiga qaraganda 18 yosh va undan kattalarda kasallanish 12,38% ni tashkil qilishi ta‘kidlanadi. Oxirgi o‘n yilliklar davomida 0–6 yoshdagi har 1000 nafar bolaga 3,68 ta, 7-14 yoshdagilarda 10 barobarga yuqoriligi aniqlanib 35,57 ta, 15-17 yoshli o‘smirlarda 23 barobarga oshib 84,86 taga teng bo‘lganligi qayd etiladi (Frolova T.V., Bezdetko P.A., 2022).

Tadqiqotning asosiy maqsadi. Maktab yoshidagi bolalar orasida ko‘rish a‘zolari kasalliklarining tarqalganlik darajasi va uning asosiy sabablariga yo‘naltirilgan adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot materialli va uslublari. Maktab yoshidagi bolalar orasida ko‘rish a‘zolari kasalliklarining tarqalganlik darajasi va uning asosiy sabablariga yo‘naltirilgan maqolalar, tezislar, monografiyalar va boshqa turli ilmiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilib baholashda asosan tavsiflovchi usuldan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. N.A. Skoblina, O.Yu. Milushkina va boshqalarning (2021) o‘rganish natijalariga qaraganda an‘anaviy o‘qish davrida 47,4% o‘quvchilar, 41% talabalar bitta elektron moslamadan foydalangan bo‘lsalar, masofaviy o‘qish davrida 51,8% o‘quvchilar va 64% talabalar ikkita elektron moslamadan foydalanganlari aniqlangan. Eng asosiysi, 53,6% o‘quvchilar va 57% talabalarda elektron moslamalar oldida o‘tirishlar kuniga 4-6 soatga oshgan. Bu vaqtlar davomiyligi bolalarning yoshlarining o‘sishi bilan o‘quvchilarda 5-5,3 soatga, talabalarda 6,1-7,1 soatga oshib borib, mos ravishda masofaviy o‘qish davrida maktab o‘quvchilarining 79,8% ida, talabalarning 61,4% ida ko‘rish a‘zolaridagi muammolar bo‘yicha shikoyatlar oshgan.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

S.V.Markelova, E.Mettini va boshqalarning ilmiy xulosalari ham shuni ko‘rsatadiki, 40,0% barcha turdagi ta‘lim oluvchilar uyali elektron moslamalaridan amalda oqilona foydalanmaydigan xavf guruhiga kirishlari belgilangan va bu holat sezilarli darajada ularning salomatligiga salbiy ta‘sir qilishi ta‘kidlanadi. Mualliflarning yozishicha, 2000–2005 va 2017-2021 yillar dinamikasida ayniqsa birinchi sinflar ichida ko‘rish a‘zolarida buzilishlarning erta aniqlanish holatlari kuzatilgan.

Bugun Rossiyada “epidemiya miopiya” atamasi paydo bo‘ldi, deb yozadi O.M. Filkina, E.A. Vorobyeva va boshqalar (2020). Mualliflarning keltirgan ma‘lumotlariga qaraganda birinchi sinfga kelganlarning 2,4%ida miopiya aniqlangan. Beshinchi sinfga yetganda kasallik 8 marotabaga oshgan va 19,7% ga yetgan, o‘n birinchi sinfga borganda bu ko‘rsatkich 36,8% ga yetgan. Mualliflarning xulosalari shuni ko‘rsatadiki, deyarli barcha maktab o‘quvchilari uyali telefon va kompyuterdan foydalanadilar. Bolalarning yoshlarining o‘sishi bilan raqamli qurilmalardan fodalaniş birinchi sinflarda 1,8 barobargacha, beshinchi sinflarda 2,6 barobarga va katta sinflarda 2,3 barobarga oshgan. Muhimi shundaki, bir kunda raqamli qurilmalardan foydalanish 6 soatdan oshsa, miopiya kasalligining rivojlanishi 1,8 marotabaga oshishi qayd etiladi. Keyingi ma‘lumotlarga qaraganda 18 yoshgacha bo‘lganlarning 25%i uyali telefonlardan foydalanadilar. Ko‘rish a‘zolari kasalliklari iqtisodiy jihatdan farovon yashaydigan oila farzandlarida ijtimoiy omillari xavfi yuqori bo‘lgan oilalar farzandlariga nisbatan ko‘proq ro‘yxatga olinganligi, ularning raqamli qurilmalar — telefon, planshet, noutbuk, shaxsiy kompyuterlar va televizorlar bilan yetarli darajada to‘liq ta‘minlanganligi bilan tushuntiriladi va ularda kasallanish 1,5 barobarga yuqoriligi qayd etiladi (Toncheva K.S., Bkova N.L. va boshqalar, 2020).

A.E.Voronina va boshqalar (2023) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra ko‘z va uning qo‘shimcha a‘zolari kasalliklari 0-14 yoshli bolalar va shuningdek 15-17 yoshli o‘smirlar orasida 5-6,0 % ni tashkil etadi. Sezilarli darajada akkomodatsiya holatining buzilish an‘anasi 12 yoshdagilarda nisbatan ko‘proq kuzatildi. Miopiya nisbatan qiz bolalarda ko‘p uchrashi kuzatilgan. Ko‘z oynakka muhtojlik barcha yoshdagi bolalarda 47 % ni, ehtiyojni ta‘minlash esa 32% ni tashkil qilgan. E.P.Tarutta, E.N.Iomdina va boshqalarning (2018) bergan ma‘lumotlariga qaraganda miopiyaning tarqalganlik darajasi kichik maktab yoshidagi bolalarning 6-8%ida, maktabni tugatish davrida, ya‘ni 17 yoshli bolalarda 25-30 %, maxsus maktablarda esa 50 % gacha bo‘lishi ta‘kidlanadi. Miopiyaning dunyo mamlakatlarida tarqalganlik darajasi bir xil emasligi, uning Janubiy-Sharqiy Osiyoda: Janubiy Koreyada – 96,5 %, Xitoyda – 80 %, Singapurda – 73,9 %, Gonkongda – 61,5 % da kuzatilsa, uning eng kam darajasi Afrikada – 11% yoshlarda miopiya borligi aytiladi. Istiqboldagi hisob-kitoblarga qaraganda 2050 yillarga borib aholining 49,8%i miopiya bilan kasallanadilar, uning 9,8 %i yuqori darajadagi miopiyadan aziyat chekadilar. Mualliflar maktab yoshidagi bolalarda miopiya kasalligining tarqalishidagi omillarning kompleksligini inobatga olib, ularni optik korreksiyalash, dori-darmonlar bilan davolashda bolaning salomatlik darajasidan kelib chiqib holatga individual yondashish kasallik rivojlanishining oldini olishga xizmat qilishini alohida ta‘kidlaydilar. Maktab bolalari uchun har xil turdagi gadjetlarni qorong‘i xonalarda va transport vositalarida, ayniqsa harakat vaqtida foydalanishning zarari nisbatan yuqori ekanligi aytiladi (Maksimova V.N., Prozorova V.S. va b.). Oxirgi 15 yillar davomida bolalar orasida ko‘rish a‘zolari kasalliklarining keskin oshib ketishi, aynan o‘qish jarayonlariga raqamli elektron qurilmalarning keng kirib kelishi bilan bevosita bog‘liq. Ayrim ma‘lumotlarda keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa uyali telefon va kompyuter bolalarning diqqatini juda tez o‘ziga qaratib oladi va bolalar uning oldida qancha va qanday gavda holatida o‘tirganlariga ham e‘tibor bermaydilar. Bolalarning uzoq vaqt noqulay gavda holatlarida ekranlar oldida qolib ketishlari ularda nafaqat ko‘z kasalliklarini, balki tayanch-harakat a‘zolari, yurak-qon tomir va asab tizimi kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq so‘roq qilinganlarning 63%ida bo‘yin va ko‘krak orqa qismida og‘riq, 41%ida – ko‘zda qurish va og‘riq, 27 %ida – bosh og‘rish va aylanish, 16 %ida – qo‘llarda og‘riq, 24%ida – ishtahaning yomonlashishi, 34 %ida – uyquning buzilishi, ya‘ni uyqusizlik va 12 %ida tana vaznining oshishi holatlari kuzatilgan (Sokolova A.I., Yaskova E.E., 2021).



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

M.A. Iskandarova va boshqalarning (2021) adabiyotlar sharhi natijalari asosida aniqlagan ma'lumotlariga qaraganda, bir kunda yer kurrasida 1,5 milliarddan ko'p aholi smartfonlar va boshqa turdagi raqamli elektron qurilmalardan foydalanadilar va bir kunda o'zlarining smartfonlarini o'rtacha 150 martadan kam bo'lmagan holatda olib ko'radilar, natijada ko'rish a'zolariga har xil kattalikdagi ekranlardan ortiqcha zo'riqishlar kuzatiladi va ko'z kasalliklarining oshishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun oftalmologlar foydalanuvchilardan, ayniqsa maktab yoshidagi bolalardan har 40-45 daqiqadan tanaffuslar qilib ko'z mashqlarini bajarishlarini tavsiya qilishlari ko'rsatilganligi ta'kidlanadi. N.O. Berezina, M.I. Stepanovalarning (2020) ilmiy xulosalari shuni ko'rsatadiki, elektron qurilmalar, asosan smartfonlardan ko'p foydalanadigan o'spirinlar orasida o'zlarini yomon his qilish holatlari kuzatilib, ularning 79,4 %ida ko'rishlarida buzilishlar, 31,7 %ida uyqu buzilishi holatlari aniqlangan. Amalda smartfonlardan 100 % maktab o'quvchilari va talabalar o'qish jarayonida va kundalik hayotida foydalanishlari I.B.Ushakov, V.I.Popov va boshqalar (2021) ilmiy xulosa sifatida keltiriladi. Mualliflarning ta'kidlashlaricha, smartfonlardan foydalanmagan 51,3% o'quvchilarning ko'rish a'zolarida hech qanday o'zgarishlar kuzatilmagan, ammo bir vaqtning o'zida smartfonlardan har kuni foydalangan 58,0% o'quvchilarning ko'zlarida funksional o'zgarishlar va surunkali ko'z kasalliklari shakllangan. O.Yu.Milushkina va boshqalarning (2024) yozishlaricha, bugun ayniqsa yoshlar orasida elektron qurilmalardan o'qish va turmushning boshqa maqsadlarida foydalanishlar yil sayin oshib borayotganligi ta'kidlanadi. Ayniqsa qurilmalardan gavdaning noqulay holatlarida — kresloda o'tirib, yotgan holatda, tepaga qarab, qorong'i xonada uzoq vaqt qolib ketishlari yoshlar orasida ko'rish a'zolari kasalliklarining, asosan miopiyaning keng tarqalishiga sabab bo'layotganligi ta'kidlanadi. Ko'plab adabiyotlarda bu holatning oilada, ta'lim muassasalarida, ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan boshqariladigan jarayon ekanligi va ko'z hamda boshqa kasalliklarning ma'lum darajada oldini olish mumkinligi qayta-qayta keltiriladi.

Sankt-Peterburgda birinchi sinf o'quvchilarining ota-onalari orasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatganki, atigi 20-25% ota-onalar bolalarining sog'lom ekanliklarini ko'rsatganlar. Beshinchi sinf o'quvchilarining ota-onalaridan biron-tasi ham bolalarining sog'lom ekanliklarini aytmaganlar. Har uchtadan biri bolalarida bosh og'rig'i, ko'z qizarishi, bosh aylanishini, 16 % bolalarda uyquning buzilishini ko'rsatganlar.

Birinchi sinflarda kompyuter va gadjetlarda ishlash yuklamasi 1 soat 56 daqiqani, ikkinchi sinflarda 2 soat 10 daqiqani, beshinchi sinflarda esa 2 soat 28 daqiqani tashkil qilishi aniqlangan. Birinchi sinfga kelganlar orasida refraksiya anomaliyasi aniqlanmagan (84,0%). Ularning 4 %ida miopiya, 12,0 %ida gipermetropiya mavjudligi aniqlangan. Uchinchi sinfga kelganda sog'lom bolalar 44,0% ni tashkil qilgan, to'rtinchi sinfdan miopiya 20,9% ni va yana 19,8 %ida akkomodatsion buzilish aniqlansa, beshinchi sinflarda miopiya 48,0% ni tashkil etganligi aniqlangan (Zemlyanoy D.A., Lvov S.N. va b., 2018). Maktablarda o'quv jarayonlarida elektron qurilmalardan foydalanishning foydali tomonlari bilan bir qatorda, ulardan nooqilona foydalanilganda bolalar salomatligiga har tomonlama zarar yetkazishi ham mavjud. Rossiya Federatsiyasining ayrim hududlarida hatto miopiya kasalligi maktabgacha davrda shakllanib boshlanishi aytiladi. Birinchi sinfga kelganlar orasida 2,4% bolalarda, beshinchi sinfdan 19,7% da va 11-sinfdan 36,8%ida har xil darajadagi miopiya qayd etilgan. Bunda irsiy omillar bilan bir qatorda xulqiy omillar — toza havoda yetarlicha yurmaslik, kamharakatlik, yuqori darajadagi ko'zga beriladigan yuklamalar, uzoq vaqt ekranlar oldida qolib ketishlar, ekran oldidagi noqulay gavda holatlari, ekranga yaqin o'tirishlar, yetarli darajada uxlamaslik kasallikni bir necha marta oshirib yuborishi va bu holatlar nazoratga olinsa, ko'z kasalliklarini ikki barobarga kamaytirish mumkinligi ta'kidlanadi (Kuchma V.R., Polenova M.A. va b., 2021). N.A.Skoblina, V.I.Popov va boshqalarning ilmiy xulosalariga ko'ra, kuniga 2 soatdan ko'p smartfonlardan foydalanadigan o'spirinlar orasida ko'zda og'riq va qurish bo'yicha shikoyatlari borlar soni 2 barobarga oshganligi isbotlangan. O'rganilganlarning 12 %ida bosh og'rig'i, 13,8 %ida ko'zda charchash, 13 %ida ko'z sohasida charchash, 12,5 %ida ko'rish tasvirida noaniqlik, 13,2 %ida orqa sohasida tirishish va og'riq, 12,8 %ida bo'yin sohasida tirishish va og'riq borligi kuzatilgan.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Rossiyaning Voronej viloyatida 322 nafar maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan so‘rovnomatahlillari natijasida olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘roq qilingan 7–8-sinf o‘quvchilarining 54 %i yaxshi ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan, 46 %ida ko‘rishda buzilishlar aniqlangan. Ularning 37 % bolalarda miopiya, 17 % bolalarda uzoqni ko‘ra olmaslik, 20 %ida astigmatizm va 26 %i o‘quvchilarda boshqa xil kasalliklar aniqlangan. E‘tiborli jihati shundaki, 70 % maktab o‘quvchilari irsiy ko‘z kasalliklariga moyilligi bor. Muhimi, o‘rganilganlarning 90 %i ko‘rish tartiblariga amal qilmaydilar, 70 %i uy vazifalarini yetarli bo‘lmagan yorug‘likda bajaradilar, 66 % so‘roq qilinganlar kuniga kompyuter oldida 3 va undan ko‘p soat vaqtlarini o‘tkazadilar, 58% o‘quvchilar turmush tarzini ko‘proq o‘tirib o‘tkazadilar, 53% o‘quvchilar juda oz vaqtlarini ko‘chada o‘tkazadilar. Bu ma‘lumotlar maktab bolalari orasida ko‘z kasalliklarining profilaktikasi yetishmasligini va ularda ko‘z charchashiga olib keluvchi omillarning yuqoriligini ko‘rsatadi (Kulyapkina E.P., Sokolova N.V., 2020). E.V. Vasilev, T.V. Romashova va boshqalarning o‘tkazgan adabiyotlar sharhida berilgan ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 5–11-sinf o‘quvchilari 95 % holatlarda elektron qurilmalardan (me‘yor 4 soat) foydalanishda belgilangan gigiyenik me‘yorlarga umuman rioya qilmaydilar va natijada ular orasida miopiya kasalligi 0,68 martaga, shaxsiy noutbuklardan 4 soat va undan ko‘p vaqt foydalanganlar orasida esa 8,6 marotabaga oshishi kuzatilganligi ta‘kidlanadi.

Bu holatlar birinchi navbatda bolalarga yoshlikdan elektron qurilmalar bilan uyda va ta‘lim jarayonida foydalanish bo‘yicha ota-onalar va o‘qituvchilar tomonidan beriladigan tibbiy-gigiyenik va texnik tarbiyalarning darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi (Abdullaev I.K., Abdurasulov A.K., 2025). S.A.Obrubov, S.V.Markelovalarning (2021) yozishlaricha, elektron qurilmalarning uzoq muddatli samarasi shu vaqtgacha ma‘lum emas. Ammo uning ko‘rish a‘zolariga qisqa muddatli ta’sirlari — ko‘z qurishi, qichishi, qizarishi, tasvirning noaniqligi, ko‘rish fokusining o‘zgarishi, ko‘z oldida qora nuqtalarning aylanishi, predmetlarning ikki bo‘lib ko‘rinishi holatlari kuzatiladi.

Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar kuniga o‘rtacha 4,2 soat, ko‘rishida muammolari bo‘lmagan maktab o‘quvchilari esa kuniga o‘rtacha 2,9 soat ekran qarshisida o‘tirganlar. E‘tiborli jihati shundaki, ular mos ravishda 60,7 va 43,1 daqiqa jismoniy mashg‘ulotlarni bajarganlar. Achinarli tomoni shundaki, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, 2050 yilga borib dunyo aholisining 50%ida miopiya kuzatilishi aytiladi (Abdullaeva D.G., Khusanova M.A., 2025). Deyarli ko‘pchilik adabiyotlarda maktab bolalariga nisbatan miopiya kasalligining sabablari bir-biriga o‘xshash holatlarda keltirilgan. Ta‘kidlanishicha, kuniga 4 soat va undan ko‘p vaqt ekranga qarab o‘tiradiganlarda 32 %, kuniga 2–4 soat qaraganlarda 18 %, 2 soat va undan kam vaqt sarflaganlarning esa 8 %ida miopiya kasalligi mavjudligi keltirilgan (Dr. Umang Vinodbhai Adroja et al., 2025).

Ayrim adabiyotlarda keltirilishicha, 1-sinfdan 9-sinfgacha bo‘lgan davrda gipermetropiya darajasi 6,4% dan kamaygan, shu bilan birga miopiya bilan kasallanish darajasi 10,4% dan 89,4% ga oshgan. 6 va 7-sinflarda ham uning darajasi oshib, mos ravishda 34,58 % va 77,03 % ga teng bo‘lgan (Yahan Yang, Ruiyang Li et al., 2021). Ma‘lumotlarga qaraganda, 2020 yilga kelib 2015–2019 yillarga nisbatan miopiya maktab yoshidagi bolalar orasida sezilarli darajada oshgan: 6 yoshli bolalarda 5,7 % dan 21,5 % ga, 7 yoshli bolalarda 16,2% dan 26,2% ga va 8 yoshli bolalarda esa 27,7% dan 37,2% ga yetgan. Ta‘kidlanishicha, miopiya qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga nisbatan ertaroq rivojlanadi va ko‘proq o‘ng ko‘zning miopik holati kuzatilgan (Jiaxing Wang et al., 2025).

Sheetal Suresh Madalagi va boshqalarning (2025) Hindistonning Maxarashtra shtatida olib borilgan ilmiy izlanishlari natijalari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilgan jami 350 nafar o‘quvchilarning 256 nafari (73,1 %)da refraktiv buzilishlar, 138 nafari (39,4%)da oddiy miopiya, 64 nafari (18,3%)da gipermetropiya, 52 nafari (14,8%)da strabizm, 45 nafari (12,8%)da alternatsiyalanuvchi ezotropiya va 18 nafari (5,1%)da oddiy vitamin A yetishmovchiligi aniqlangan. Asosiy sabab sifatida bolalar orasida refraktiv buzilishlar ko‘rsatiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko‘ra, 5 va undan yuqori yoshdagi bolalar ekran oldida kuniga 2 soatdan



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

kam o‘tirishlari kerak. Bu holat Irlandiyada 6–7 yoshli maktab bolalari orasida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar bilan ham isbotlangan. Ya‘ni, 2 soatdan ko‘p o‘tirganlarda yuqori miopik o‘zgarishlar, yuqori refraktiv astigmatizm, korneyal radiusining qisqarishi, yuqori aksial uzunlik, vazn ortishi va semirish holatlari kuzatilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2 avlod davomida Osiyoda miopiya darajasi 2 barobar oshgan bo‘lsa, Buyuk Britaniyada so‘nggi 50 yil ichida ham miopiya 2 marotabaga oshganligi ta‘kidlanadi (Siofra Harrington, Veronica O‘Dwyer, 2023). Keyingi ma‘lumotlarga qaraganda, dunyo bo‘yicha 70 million bola refraktiv buzilishlar oqibatida kelib chiqadigan ko‘z kasalliklaridan aziyat chekadi. Tibbiy kartalar tahlili natijalariga ko‘ra, faqat 9% bolalarda refraktiv buzilishlar korreksiyasi sifatida ko‘zoynak taqilganligi aniqlangan. Biroq ko‘rik tekshiruvlari natijasida 6 yoshli bolalarning 8%ida korreksiya qilinmagan miopiya aniqlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 15 yoshli bolalar orasida 18%ni tashkil qilgan. Irlandiyada olib borilgan tadqiqotlar miopiya kasalligining tarqalish darajasi 50 % dan oshganligini ko‘rsatadi (Yazan Gammoh et al., 2024).

Ghulam Hussain Asif, Ahla Fatima va boshqalarning (2017) ilmiy tahlillari shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘yicha ko‘zi ojizlar (ko‘rmaydiganlar) soni 1,5 millionni tashkil etadi. Ularning 1 millioni Osiyoda, 0,3 millioni Afrikada, 0,1 millioni Lotin Amerikasida va 0,1 millioni dunyoning boshqa hududlarida yashaydi. Achinarli jihati shundaki, ularning 39–72 % ida ko‘rlikning oldini olish mumkin bo‘lgan jarayonlar natijasida yuzaga kelganligi ta‘kidlanadi. Bolalar orasida ko‘rlikning tarqalishi rivojlanmagan davlatlarda har 1000 bolaga 1,2 nafarni, rivojlangan davlatlarda esa har 1000 bolaga 0,3 nafarni tashkil etadi. Taxminlarga ko‘ra, rivojlangan davlatlarda har yili 100 000 bolaga 8 ta ko‘rlik holati to‘g‘ri keladi, rivojlanayotgan davlatlarda esa bu ko‘rsatkich yanada yuqori bo‘lishi mumkin. Istiqboldagi bashoratlarga ko‘ra, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi farq o‘n barobargacha yetishi mumkin.

Xulosalar

1. Maktab yoshidagi bolalar orasida ko‘rish a‘zolari kasalliklari va uning tarqalganligiga yo‘naltirilgan adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilishlar asosida shu holat ma‘lum bo‘ldiki, maktab yoshidagi bolalarda ko‘z kasalliklarining tarqalish darajasi dunyo mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda oshib borayotganligi va yosharib borayotganligi aniqlandi.
2. Deyarli barcha o‘rganilgan adabiyotlarda maktab yoshidagi bolalarda ko‘rish a‘zolari kasalliklarining keng tarqalish sabablari sifatida, asosan, bugungi kunda bolalarning uyda, o‘qishda va darslarga tayyorlanish jarayonlarida turli xil elektron qurilmalar — smartfonlar, uyali telefonlar, planshetlar, noutbuklar, shaxsiy kompyuterlar va televizorlardan foydalanishda belgilangan gigiyenik me‘yorlarga rioya qilmasliklari ko‘rsatiladi.
3. Aholi, jumladan maktab yoshidagi bolalar orasida ko‘rish a‘zolari kasalliklari, xususan miopiya yoki ko‘rlik holatlarining 39-72%ida refraktiv buzilishlar va oldini olish mumkin bo‘lgan sabablar bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan.
4. Bolalar orasida kuzatiladigan ko‘z kasalliklarining yuzaga kelish sabablarining oldini olish, birinchi navbatda, bolaga maktabgacha va maktab yosh davrida oilada hamda tarbiya va ta‘lim muassasalarida elektron qurilmalar bilan ishlash bo‘yicha olib boriladigan aqliy, axloqiy, nafasat, tibbiy-gigiyenik va texnik tarbiyalarga ko‘p jihatdan bog‘liqligi aniqlandi.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев И. К. Строгое соблюдение здорового образа жизни-самый действенный критерий сохранения и укрепления здоровья //Высшая школа: научные исследования. – 2023. – С. 119-125.
2. Абдуллаев И. Соғлиқни сақлаш тизими муассасаларини бошқарувчи малакали менежерларни тайёрлаш тизимининг келажакдаги истиқболлари //South Aral Sea medical journal. – 2025. – Т. 1. – №. Maxsus son. – С. 173-176.
3. Абдуллаев И.К., Абдурасулов А.К. Воспитание как духовная основа здорового образа жизни, Ургенч, 2025.- 124с.
4. Бердникова Е.В., Ядыкина Е.В. и др. Оценка факторов риска, нарушений аккомодации как компонента компьютерного зрительного синдрома у школьников разных возрастных групп // Российская детская офтальмология, 2025.-№1 (51).-С.17-23.
5. Березина Н.О., Степанова М.И. Влияние цифровых средств обучения на самочувствие обучающихся средних классов // Гигиена детей и подростков, 2020.-№8.(329).-С.20-24.
6. Васильев Е.В., Ромашова Т.В и др. Оценка влияния электронных устройств на образ жизни и организм детей и подростков в современных условиях (обзор литературы) // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Медицинские науки, 2024.- №3.-С.162-174.
7. Воронина А.Е., Борщук Е.Л. и др. Состояние рефракции школьников 9-17 лет // Материалы XXXIV Всероссийская научно-практическая конференция.-.27-31.
8. Земляной Д.А., Львов С.Н. и др. Особенности организации режима дня и динамика изменений рефракции у учащихся младших классов Санкт-Петербурга // Педиатр, 2018.- Т.9.-Вып. 6.-С.45-49.
9. Искандарова М.А. ва др. Влияние современных гаджетов на орган зрения у детей и их профилактические меры (обзор литературы) // Журнал биомедицины и практики, 2021.- №3.-С.312-318.
10. Куляпкина Е.П., Соколова Н.В. Медико-социальные и гигиенические аспекты формирования нарушений зрения школьников и пути совершенствования профилактической работы учителя // Научно-медицинский вестник Центрального Черноземья.-2020.-№79.-С.43-48.
11. Курганский А.М., Гурьянова М.П. и др. Медицинские и социально-педагогические риски использования детьми младшего школьного возраста цифровых устройств: эмпирическое исследование // Вестник РУДН. Серия: Психология и педагогика, 2023.- Т.20.-№3.-С.501-525.
12. Кучма В.Р., Поленова М.А. и др. Информатизация образования: медико-социальные проблемы, технологии обеспечения гигиенической безопасности обучающихся // Гигиена и санитария, 2021.-Том100.-№9.-С.903-909.
13. Максимова В.Н.,Прозорова В.С. и др. Влияние гаджетов на зрение школьников // Материалы форм молодых ученых, 2018.-№9 (25).-529532.
14. Маркелова С.В., Меттини Э. и др. Режим использования мобильных электронных устройств обучающимися как фактор риска развития отклонений со стороны органа зрения // Российский вестник гигиены, 2022.-№2.-С. 30-36.
15. Милушкина О.Ю., и др. Закономерности влияния электронных устройств на образ жизни и здоровье молодого поколения // Российский вестник гигиены, 2024.-№2.- С. 4-8.
16. Обрубов С.А., Маркелова С.В. Влияние жизнедеятельности в условиях цифровой среды на состояние органа зрения обучающихся // Российский вестник гигиены, 2021.-№2.-С.4-10.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI
2 - TOM, 2 - SON. 2026
14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

17. Скоблина Н.А., Мулушкина О.Ю. др. От традиционного к дистанционному обучению: гигиенические проблемы охраны зрения обучающихся // Гигиена и санитария. 2021.-Том 100.-№4.-С. 373-379.
18. Скоблина Н.А., Попов В.И. и др. Риски развития болезней глаза и его придаточного аппарата у обучающихся в условиях нарушения гигиенических правил использования электронных устройств // Гигиена и санитария, 2021.-Том100.-№3.-С.279-284.
19. Соколова А.И., Яскова Е.Е. Влияние современных информационных технологий на состояние здоровья школьников // Российский вестник гигиенк, 2021.-№2.-С.40-44.
20. Тарутга Е.П., Иомдина Е.Н. и др. Комплексный подход к профилактике и лечению прогрессирующей миопии у школьников // Клиническая офтальмология, 2018.-№2.-С.70-76.
21. Тончева К.С., Бккова Н.Л. и др. Влияние современных гаджетов на здоровье детей школьного возраста: Аспекты проблемы // Научное обозрение, 2020.-№3.-С. 29-33.
22. Ушаков И.Б., Попов В.И. и др. Длительность использования мобильных электронных устройств как современный фактор риска здоровью детей, подростков и молодежи // Экология человека, 2021.-№7.-С.43-50.
23. Филькина О.М., Воробьева Е.А. и др. Длительность использования цифровых устройств как один из факторов риска развития миопии у школьников // Анализ риска здоровью, 2020.-№4.-С.76-82.
24. Фролова Т.В., Бездетко П.А. Анализ динамики миопии у школьников после дистанционного обучения во время пандемии COVID-19 // «Офтальмология. Восточная Европа», 2022.-Том 12.-№1.-С.108-114.
25. Хасанова Ш. М. Ё., Абдуллаев И. К. Тарбия-жамиятда юсак шахс ва мамлакатимизда учинчи ренесанс бунёдкорини шакллантиришининг маънавий асоси //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. Special Issue 2. – С. 172-176.
26. Abdullaeva D.G., Khusanova M.A. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. -Vol 3, Issue 3, March 2025.-378-383p.
27. Dr. Umang Vinodbhai Adroja et al. Correlation Between Screen Time Exposure and the Incidence of Myopia Among School-Aged Children: A Prospective Cohort Study // International Journal of Life Sciences, Biotechnology and Pharma Research Vol.14,No.5, May 2025/-15-18p.
28. Ghulam Hussain Asif, Ahla Fatima et al. Screening of Common Eye Problems in Children by School Teachers and Community Health Workers // Pakistan Journal of Ophthalmology, 2017.-Vol. 33/-№4.-227-233p.
29. Jiaxing Wang et al. Progression of Myopia in School-Aged Children After COVID-19 Home Confinement // JAMA Ophthalmology,2021.-№139(3).-293-299p.
30. Sheetal Suresh Madalagi et al. Study of Eye Health Status among Rural School Going Children, International Journal of Pharmaceutical and Clinical Research, 2025.-№ 17(1).-367-371p.
31. Siofra Harrington, Veronica O'Dwyer. The association between time spent on screens and reading with myopia, premyopia and ocular biometric and anthropometric measures in 6-to 7-year-old schoolchildren in Ireland // Ophthalmic and Physiological Optics, 2023. -№43.-505-516 p.
32. Yahan Yang, Ruiyang Li et al.The associations of high academic performance with childhood ametropia prevalence and myopia development in China // Annals of Translational Medicine, 2021.-№9(9)-745p.
33. Yazan Gammoh and others. Vision Screening and Detection of Ocular Abnormalities in School Children by Teachers // Journal of Multidisciplinary Healthcare, 2024.-№17.-5047-5055.